

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” HAMDA “KITABI DADAM QO‘RQUD”DAGI JANRLAR UYG‘UNLIGI

Davronbek Oripov,

*Renessans ta’lim universiteti dotsent v.v.b
filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD),*

E-mail: bekdavr@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali turkiy xalqlarning mushtarak adabiy meroslari hisoblangan “Kitobi Dadam Qo‘rqud” hamda “Devonu lug‘otit turk” asarlaridagi o‘xshash tomonlar, xususan, janrlar uyg‘unligi tadqiq qilinadi. Mazkur maqolada Qo‘rqut otaga oid afsonalar, o‘g‘uzlar tarixi, “Kitobi Dadam Qo‘rqud” eposi hamda “Devonu lug‘otit turk”ning turkiy xalqlar tarixida tutgan o‘rni haqida yangi fikrlar o‘rtaga tashlanadi. Va baholi qudrat, ilmiy asoslanadi. Qo‘rqut ota shaxsiyati qadimgi manbalar, tarixiy solnomalar, bizgacha yetib kelgan asarlar, zamondosh tadqiqotchilar izlanishlari asosida tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Dada Qo‘rqud (Qo‘rqut ota), “Kitobi Dadam Qo‘rqud”, “Devonu lug‘otit turk”, Umay, qadimgi janrlar, topishmoq, Gerodot.

Abstract. This article examines the similarities, in particular the harmony of genres, between the works “The Book of my Deda Korkut” and “The Divani Lugatit Turk”, which are considered the common literary heritage of the Turkic peoples. This article presents new insights into the legends of Dede Korkut, the history of the Oghuz people, the epic “The Book of my Deda Korkut” and the role of the “Divani Lugatit Turk” in the history of the Turkic peoples. Its value is high and scientifically substantiated. The personality of Dede Korkud was studied on the basis of ancient sources, historical chronicles, surviving works and research by modern scholars.

Key words: Deda Korkud, “The Book of my Deda Korkut”, “The Divani Lugatit Turk”, Umay, ancient genres, riddles, Herodotus.

Аннотация. В данной статье исследуются сходства, в частности, гармония жанров, в произведениях “Китаби Деде Коркуд” и “Диван лугат ат-турк”, которые считаются общим литературным наследием тюркских народов. В статье выдвигаются новые идеи, касающиеся легенд о Коркут-ата, истории огузов, эпоса “Китаби Деде Коркуд” и места “Диван лугат ат-турк” в истории тюркских народов. И по мере возможности, они научно обосновываются. Личность Коркут-ата исследована на основе древних источников, исторических летописей, дошедших до нас произведений и изысканий современных исследователей.

Ключевые слова: Деде Коркуд (Коркут-ата), “Китаби Деде Коркуд”, “Диван лугат ат-турк”, Умай, древние жанры, загадка, Геродот.

Kirish. Turkiy qavmlarning bebaho asarlaridan hisoblangan “Devonu lug‘otit turk” hamda “Kitabi Dadam Qo‘rqud”da bir qator janrlar uchraydiki, ular o‘zaro uyg‘unlik, hamohanglik kasb etadi.

Mahmud Koshg‘ariy “Devon”da “bilig” so‘zini keltirib, uni bilim, hikmat, aql deya izohlaydi [1:365]. Ushbu atama oqil, dono, hikmat aytuvchi insonga, roviyga nisbatan qo‘llanadi.

Demak, bilig – hikmat, ma’lum ma’noda hozirgi o‘zbek tili lug‘at boyligidagi maqol janrining mazmunini ifodalaydi.

Adabiyotlar sharhi. “Devonu lug‘otit turk”da: **Ума келса, қут келар** – mehmon kelsa, qut kelar. **Қарға қазға ўткўнса бути синур** – qarq‘a uchishda g‘ozga taqliq qilsa, buti sinar. **Этли, тиринакли эфирмас** – et tirnoqdan ayrilmas kabi biliglar keltirilgan.

E'tiborlisi, "Kitabi Dadam Qo'rqud" eposida, jumladan, Muqaddimasida ellikdan ortiq maqollar mavjud. Ba'zi olimlar ularni aforizmlar, otalar so'zlari deb ham ataydi.

Азалдан тақдирга ёзилмаса, қул бошига қазо келмас. Эски момиқ бўз бўлмас, қари душман дўст бўлмас. Бу дунёда ёлгон сўзнинг бўлмагани яхши kabilar shular jumlasidandir. Sanog'imizga ko'ra, ularning o'n ikki bo'yidagi jami soni (13-bo'y bu ro'yxatga kiritilmagan – D.O) ellik uchtani tashkil etdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqol yoki hikmatli so'zda dono xalqning asrlar sinovidan o'tgan tajribasi, dunyoqarashi, kuzatishu o'y-kechinmalari o'z aksini topadi. Dada Qo'rqut tomonidan aytilgan maqollar (aforizmlar) ham Koshg'ariy keltirgan biliglar singari dono fikr, aqlli gap, bilimli inson tomonidan aytilgan hikmat ma'nosini bildiradi.

Tahlillar va natijalar. "Dada Qo'rqut" yoki "Kitabi Dadam Qo'rqud" eposining davr nuqtayi nazaridan "Devonu lug'otit turk"ka yaqin ekani ham janrlar, xossatan, bilig va maqollar janri o'zaro hamohang ekanining yana bir isbotidir.

"Kitabi Dadam Qo'rqud" Muqaddimasida Qo'rqut ota tilidan quyidagi so'zlar keltiriladi:

Ozan aydir:

Qarilar dōrt dūrlūdūr:

Birisi solduran sopdur.

Birisi dolduran topdur.

Birisi eviñ dayağidir,

Birisi necə söylərsən, bayağidir[2:22].

(Ma'nosi:

Baxshi aytar:

Xotin degan to'rt turlidir:

Birovi yuzingni so'ldirar,

Birovi to'ldirilgan to'pdir,

Birovi uyingni tirtgagi,

Birovi deganingni anglamas, g'alchadir).

Nazarimda, bu Qo'rqut otaning yosh avlodga, o'g'uzlarga qarata aytgan o'giti, nasihatidir. Shu orqali avliyo rafiqa tanlashda e'tiborli bo'lishga, shoshilmaslikka chaqirmoqda.

Shunga o'xshash janr "Devonu lug'otit turk"da bor. O'git, nasihat ruhidagi she'rlar **o'tluk** deya nomlanadi. **O'vot** degan ko'rinishi ham berilgan. Tabiiyki, o'vot – o'git demakdir.

"Devon"da ushbu janrga oid ikki she'r parchasi keltiriladi:

O‘tluk – 1

Кўшни-кўнуқ ағишқа,
Қилғил анғар ағирлик.
Артут алиб анунғил,
Эзгу тавар ўғрулуқ.

Ma’nosi:

Qo‘ni-qo‘shni qarindosh,
Ko‘rsin sendan yaxshilik.
Ne-ne sovg‘a qilishga,
Yaxshirog‘in qil ortiq

O‘tluk – 2

Келса қали қатиглиқ,
Эртар тею серингил.
Ўзлук ишин билип тур,
Анча ангар тирангил.

Ma’nosi:

Kelsa qancha qattqlik,
O‘tib ketar, sabr etgil.
Dunyo ishin bilib tur,
O‘zingni beg‘am tutgil.

Anglashilganidek, birinchi o‘tlukda qo‘ni-qo‘shnilar orasidagi ahillik, saxiylik haqida so‘z borsa, ikkinchisida sabr-bardosh, matonat kabi go‘zal fazilatlar ulug‘lanadi.

Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida: “Tabzu g‘uq tabuzdim – men undan bir topishmoq so‘radim” deya keltiradi. Tabzu g‘uq yoxud tabzug‘ qadimiy janrlardan biri bo‘lib, topishmoqqa mos keladi.

Topishmoq ikkiga bo‘linib, biri – so‘z shakli, yashiringan narsani so‘z vositasida ifodalasa, ikkinchisi – narsa-buyumni ko‘rsatish bilan yashiringan fikrni topishga chorlaydi.

Turkiy xalqlar orasida ko‘proq ikkinchi shakli rivoj topgan. Gerodotning “Tarix” kitobidagi “Doroning Skifiyaga yurishi” qissasida qayd etilishicha, skiflar hukmdori bosqinchi Doroga qush, sichqon, qurbaqa va beshta kamon o‘qini yuboradi. Nodon Doro bu jumboqni quyidagicha izohlaydi: “Skiflar menga hokimiyatni, yer hamda suvini topshirmoqchi. Sichqon yerda yashaydi, insondek yerning mahsulotidan oziqlanadi. Qurbaqa suvda yashaydi. Qush chaqqonligi bilan otga o‘xshaydi, kamon o‘qlarini topshirishlari esa skiflarning bizga qarshilik ko‘rsatmasliklarining belgisidir”.

Doro qo‘shini safida Gobriy degan aqlli kishi bo‘lib, u buyum – topishmoqqa o‘zgacha yechim topadi: “Agar siz, forslar, qushdek osmonga parvoz etmasalaringiz yoki sichqondek yerostiga yo‘qolmasalaringiz yoki qurbaqadek botqoqqa sakrab tushmasalaringiz ushbu kamon o‘qlaridan halok bo‘lasizlar, vatanlaringizga qayta olmaysizlar”.

Gobriy adamshagan, Doro qo‘shini qonxo‘rligi uchun skiflarning behisob kamon o‘qlariga uchrab, halokatga mahkum bo‘ladi.

Qadim uyg‘ur-turk eposi – “O‘g‘uznoma”da ham tabzug‘ janri qo‘llangan parchalar borligiga urg‘u qaratish o‘rinli. Jumladan, O‘g‘uzxon tilidan jumboq – topishmoq keltiriladi:

38.

- I. мөнің қағазлуқум јок туруп. Күн
- II. Ай, Јулдуз таң саріқа сәнләр баруң.
- III. Көк, Тақ, Тәңіз түн саріқа сән-
- IV. Iär баруң дэб дэди. Андан соң үчägү-
- V. сү таң саріқа барділар, такі үчägү-
- VI. сү түн саріқа барділар. Күн, Ай,
- VII. Јулдуз көб кіклар көб кушлар авлақу-
- VIII. ларідан соң јолда бір алтун јані
- IX. чаптілар, алді(лар), атасі(қа бәрділәр).

39.

- I. (Оқуз қаған сөвінді, күлді такі ані)
 - II. үч бузқулук килді такі (аитті) кім ай ака-
 - III. лар ја болсун сәнләрнүн, ја дәг
 - IV. окларні көккәчә атуң дэб
 - V. дэди. Кәнә андан соң Көк, Тақ,
 - VI. Тәңіз көб кіклар, көб кушлар авлақу-
 - VII. ларідан соң јолда бір күмүш ок-
 - VIII. (ні) чаптілар, алділар, атасіқа бәрділәр.
 - IX. Оқуз қаған сөвінді, күлді такі ок-
- Маъноси:

XXXVIII

1. (Аmmo) Қарилгим боис ғайратим йўқдир
2. Кун. Ой, Юлдуз! Сизлар тонг сарига боринглар!
3. Кўк, Тоғ, Тенгиз! Сизлар тун сарига боринг!» — деди.
4. Шундан сўнг учовлон
5. Тонг сари кетди. Бошқа учиси эса

6. Тун сари кетдилар. Кун, Ой.
7. Юлдузжудакўпкийик, кўпқушовлаб
8. Сўнгйўлдабиролтинёйни
9. Топдилар, олдилар (келтириб) отасигабердилар.

XXXIX

1. Ўғуз қоғон севинди, кулди. Кейин уни (ёйни)
2. Учбўлакқилди. Тағинайтдиким: «Эйоғалари,
3. Ёйсенларгабўлсин, ёйдек
4. Ўқларникўккақаработинг» — деди.
5. Яна шундан сўнг Кўк, Тоғ.
6. Тенгизкўпкийиклар, кўпқушларовлагач,
7. Сўнгйўлдаучкумушўқни
8. Топдилар. Олиботасигакелтирдилар.
9. Ўғуз қоғон севинди, кулди сўнг ўқларни,

Parcha tahliliga ko‘ra, O‘g‘uzxon to‘ng‘ich o‘g‘illarini tong sari yuboradi. Yaxshi ma‘lumki, tong ezgulik, yorug‘lik, yangilik, boshqarish, idora qilish ma‘nolariga ega. Kun, Oy, Yulduz “ko‘p kiyik, ko‘p qush ovlab”, yo‘lda oltin yoyga duch kelishadi. Qush ikki dunyo oralig‘i, yaxshilikka ishora bo‘lsa, oltin yoy hokimiyat, hukmronlik demakdir. Yoyni uchga bo‘linishi – davlatni to‘ng‘ich uch o‘g‘liga meros qoldirganini bildiradi.

O‘z navbatida, tun sariga yo‘l olgan uchchovlon yo‘lda ko‘p kiyiklar, ko‘p qushlar ovlagach, uch kumush o‘q topib, ularni otasiga keltirib berishadi. Otasi ularga o‘qlarni osmonga otishni buyuradi.

Odatda, tun yer osti olamini, zulmatni, mavhumlikni o‘zida ifoda etadi.

Uchta o‘q, umuman, o‘q turkiy mifologiyada buyruqlarni yetkazish uchun foydalanilgan. Shu bois O‘g‘uzxon ham kichik o‘g‘illariga kumush uch o‘qni ko‘kka otishni buyurgan bo‘lsa, ne ajab. Farazimizni ustoz N.Rahmonovning quyidagi fikri ham qo‘llab-quvvatlaydi: “O‘g‘uz xoqon o‘z o‘g‘illari Ko‘k, Tog‘, Dengizga kumush o‘qlarni bo‘lib bergan ekan, ularni buyruqchi yoki elchi lavozimiga tayinlagan”.

Gerodotning “Tarix” kitobidagi “Doroning Skifiyaga yurishi” qissasida tabzug‘ janri keltirilgan bo‘lsa, “O‘g‘uznoma”da O‘g‘uzxon tilidan shu janrga yaqin jumboq aks etadi. Nazarimizda, qadim turk-o‘g‘uz eposidagi jumboqni yechish kitobxon zimmasiga yuklatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kitabi-Dədə Qorqud. Əsil mətn. Bakı: 2004, B.22.
2. Kitobi Dada Qo‘rqud dostoni. (Tarjimon B.M. Sharif). Toshkent: 2023, B.14.
3. Абдурахмонов А. Туркий адабиётнинг қадимги даври. Тошкент: Yangi asr avlodi, 2005. B.325.
4. Абдурахмонов А. Туркий адабиётнинг қадимги даври. Тошкент: Yangi asr avlodi, 2005. B.328.
5. Махмуд Кошғарий. “Девону луғотит турк” I том Т.; Ўзб. ССР Ф.А. нашриёти 1960, 367-бет.

6. Раҳмонов Н. Ўзбек адабиёти тарихи. (Энг қадимги даврлардан XV асрнинг биринчи ярмигача) дарслик. Алматы: 2021. Б.137.
7. Щербак А.М. Огуз-наме. Мухаббат-наме. Памятники древнеуйгурской и староузбекской письменности. – М.: Изд-во восточной литературы, 1959. – С.59-60.
8. Ўғузнома. (Нашрга тайёрловчи Б.Исабек) Тошкент: Ўзбекистон, 2007. Б.33.

